



GRAFIKA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

JDPU talabasi: **Ravshanova Nozima Mansurjon qizi**

Ilmiy rahbar: JDPU o'qituvchisi, dotsent (PhD) Maxammadiyev Xurshid
nozimaravshanova07@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada grafika mavzusining ahamiyati, uning tilshunoslikdagi roli haqida so'z yuritiladi. Grafika tilni aniq va tushunarli ifodalashda muhim omil hisoblanadi. Maqola grafikaning nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatini ham ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: Grafema, til, estetik yozuv, harf va imlo, til tizimi.

Annotation: The article discusses the importance of graphics and its role in linguistics. Graphics are an important factor in expressing language clearly and comprehensibly. The article shows not only theoretical, but also practical importance of graphics.

Keywords: Grapheme, language, aesthetic writing, letter and spelling, language system.

Аннотация: В статье говорится о значении графики и ее роли в языкознании. Графика является важным фактором ясного и теоретического и практического значения графики.

Ключевые слова: Графема, эстетическое письмо, буквы и орфография, языковая система.

Grafema - bu tilning asosiy elementlaridan biri bo'lib, har bir so'zning to'g'ri va estetik yozilishi, uning mazmunini to'g'ri tushunishga imkon yaratadi. Yozuvning har bir nuqtasi, harf va imlosi, shu jumladan, grafikasining tili va madaniyati bilan bog'liq bo'lib, tilning tushunarli va samarali ifodalanishini ta'minlaydi. Grafika grekcha "Graphikos" so'zidan olingan bo'lib, tilshunoslikda "Yozuv" degan ma'noni anglatadi. Grafika tilning fonetik-fonologik, leksik-semantik va morfologik birliklarini yozuvda ifodalash uchun shakllantirilgan optik-grafik belgilar tizimidir. Bu tizim belgilarining har biri grafik tilshunoslikda grafemalar deb yuritiladi. Grafema termini esa fanga I.A.Boduen de Kurtene tomonidan kiritilgan. Yozuvning tovush bilan aloqasi, odatda, ana shu grafemalar vositasida amalga oshiriladi, shuning uchun grafema muayyan til yozuv tizimining eng asosiy strukturaviy va funksional birligi sanaladi. [1;84]

[1] N [grafema] 1) Ifoda plani – N harfining bosma va yozma shakllari (optik-grafik tasviri); 2) Mazmun plani – undosh tovush, til oldi, portlovchi, jarangli, sonor.

[2] ! grafema 1) Ifoda plani – undov belgisining optik-grafik tasviri; 2) Mazmun plani – undash ohangi, [intonema, prosodema].

[3] 100 (grafema) 1) Ifoda plani – 100 raqamining optik-grafik tasviri; 2) Mazmun plani – 99 va 101 raqamlarining orasidagi miqdor tushunchasi.

Yuqorida keltirib o'tilgan grafemaning birinchi [N grafemasi] alifbodagi harfga, ikkinchisi [! grafemasi] tinish belgisiga, uchinchisi [100 grafemasi] esa raqamga



belgilar guruhini, ikkinchi va uchinchi tip grafemalari esa noharfiy belgilar guruhini tashkil etadi. Har qanday tilning yozuv grafikasi tizimini olib qaraydigan bo'lsak, ularning barchasi xuddi shunday belgilar majmuyidan tarkib topishini ko'rishimiz mumkin.

Grafemalar o'zlarining tildagi muqobiliga (kodlashtirilgan) yozuvdagi vazifalariga fonografema, prosodegrafema, logografema, morfografema kabi tiplarga bo'linadi. [2; 95]

[1] FONOGRAFEMALAR

Fonografemalar tovush tilidagi fonemalarni ifodalaydi. Masalan, "O" fonografemasi "o" fonemasini, yoki "X" fonografemasi "x" fonemasini ifodalashi kabi. Fonografemaning ifodalanishi, ya'ni ifoda plani (optik-grafik) bitta harfga yoki bir nechta harfga teng bo'lishi mumkin. Masalan: (N) bunda bitta, (SH) bunda esa ikkita harf qo'shilmasi. Bunday holatlarda ular monograflar (bir harfli fonografema) va poligraflar (ko'p harfli fonografema) kabi turlar bilan ajratib o'rganiladi. Poligraflar ham o'z navbatida bir nechta bo'lishi mumkin. Ikki harflilari digraflar, uch harflilari trigraflar va hattoki to'rt harflilar holatida ham bo'lishi mumkin. Bizning o'zbek yozuvimizda esa faqatgina poligraflar guruhining digraflari mavjud. Bular: ng, sh, ch.

Fonografemalar mazmun planida bitta yoki undan ortiq fonemalar kodlashtirilgan bo'lishi mumkin. Jumladan, bizning yozuvimizdagi e unlisi fonografemasining mazmunida bitta "e" fonemasi (lablanmagan, o'rta keng unlisi), z fonografemasining mazmun planida esa bitta "z" fonemasi (til oldi) kodlashtirilgan. Bular grafemikada monografemali grafemalar deb yuritiladi. Undan tashqari esa bitta unlini yoki undoshni olsak, ular ikki xil kodlashtirilgan bo'lishi mumkin. Masalan, o unlisi " ona " so'zida "o" unlisini, "organ" so'zida esa lablangan , o'rta keng unlini kodlashtirgan. Bunday holat "J" fonografemasida ham uchraydi. Bunday holatlar grafemikada bifonemali grafema deb yuritiladi.

[2] PROSODEGRAFEMALAR

Grafemlarning ushbu bosqichi intonatsiyani, ritm (ohang, melodika, pauza)ni yozuvda namoyon qiladi. Masalan, olma so'zi (biron narsani olmaslik), olma so'zi esa (meva turi). Tinish belgilari nutqning mazmunini shakllantirishda muhim ahamiyatni kasb etadi. Ular fonetik-fonologik vositalarni (ko'tariluvchi yoki pasayuvchi ohang, sanash ohangi, pauza) yozuvda ifodalash uchun ishlatiladi. O'zbek tilshunosligida tinish belgilarining 10 ta turi mavjud. Bular: nuqta, so'roq, undov, nuqtali vergul, ko'p nuqta, vergul, ikki nuqta, tire, qavs, qo'shtirnoq. [3;8]

Oromiy yozuvi	Miloddan avvalgi 1-3-asrlar
So'g'd yozuvi	Eramizning 1-4-asrlarida
Xorazm yozuvi	2-3-asrlarda
"O'rxun-Enasoy" yozuvi	5-8-asrlarda



Uyg'ur alifbosi	6-7-asrlardan 12-asrgacha
Arab alifbosi	7-8-asrdan 1929-yilgacha
Lotinlashtirilgan o'zbek alifbosi	1929-yildan 1940-yilgacha
Rus-krill yozuvidagi o'zbek alifbosi	1940-yildan hozirgacha
Lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosi	1996-yil sentyabrdan

[4;94]

[3] LOGOGRAFEMALAR

Grafemalarning bu tipi tushuncha nomi bo'lgan so'zlarni yozuvda ifodalash uchun yaratilgan. Aslini olganda, bunday belgilar ideografik yozuv tipiga mansub birliklar sanaladi, lekin ularda fonografik yozuv tarkibida ham foydalanadi. Ular fonetik (ya'ni tovushga asoslangan) emas, balki leksik va semantik (ma'noga asoslangan) birliklardir. Logografemalarning asosiy xususiyati – bitta belgi butun bir so'z yoki g'oyani ifodalaydi. Jumladan, Rim raqamlari:

I (bir)

V (besh)

X (o'n)

L (ellik)

C (yuz)

D (besh yuz)

M (ming)

Qolgan raqamlar shu belgilar kombinatsiyasiga asoslanib boriladi

[4] MORFOGRAFEMALAR

Morfografemalar so'z tarkibidagi ma'noli qismlarni ifodalovchi belgidir. Masalan, chiziqcha biron-bir tartib sonidan so'ng qo'llanganda (-nchi,- inchi) morfemasini ifodalaydi. 1-bosqich (birinchi bosqich) kabi, ammo "yaxshi-yomon" kabi juft so'zlarda morfografema emas, orfografik belgi qatnashadi.

Simvollar (belgilar) – ma'lum sohalardagi ideografik belgilar: (%) foiz ko'rsatgichi belgisi, (+) qo'shuv belgisi, (\$) AQSH dollari belgisi, (-) ayiruv belgisi, (#) panjara belgisi, (№) raqamga ishora qiluvchi belgi va boshqalar.

Shunday qilib, grafika til tizimidagi yozuv elementlari va ularning fonetik ifodasi o'rtasidagi murakkab muosabatlarni o'rganishga xizmat qiladi hamda tilning yozma shaklini mukammal anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Grafemalar va ularning turli yozuv tizimidagi ifodalari fonetik birliklar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, orfografiya va orfoepiyaning ilmiy asoslarini belgilaydi. Tilshunoslikda grafika tushunchasi yozuv madaniyatini chuqurroq tushunishga imkon berib, fonetik va grafik



birliklari o'rtasidagi tafovut va uyg'unlikni ilmiy asoda sharhlashga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, grafika tizimini o'rganish til taraqqiyoti, yozuv islohoti va savodxonlik darajasini oshirishda ilmiy jihatdan muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.R.Sayfullayeva, B.R.Mengliyev, L.R.Raupova, M.M.Qurbonova, M.G.Abuzalova, D.N.Yo'ldoshova (O'zbek tilshunosligi);
2. H. Jamolxonov (Hozirgi o'zbek adabiy tili);
3. Nosirjon Uluqov (Tilshunoslik nazariyasi);
4. K.Nazarov (O'zbek tili punktuatsiyasi).